



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 3-aprel

86-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash haqida

Kichik va o‘rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘rishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-50-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilanganligi inobatga olinsin:

kichik va o‘rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda - 34 foizga; eksportda - 34 foizga va aholi bandligini ta’minlashda 75 - foizga yetkazish;

kamida 600 nafar kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni “champion” tadbirkorlarga aylantirish;

ichimlik va oqova suv, yo‘l, qurilish, kommunal xo‘jalik, utilizatsiya, migratsiya, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda kichik biznes ulushini kamida 2 baravarga oshirish;

100 nafardan ko‘p ishchisi bor tadbirkorlik subyektlari sonini 4 mingga yetkazish;

sanoatni jadal rivojlantirish bo'yicha loyiha ofislarini tashkil etish hisobiga kamida 100 ta kichik va o'rta biznes subyektlarida brend mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

kichik biznes subyektlari ishtirokida kamida 200 ta startap loyihalarni amalga oshirish;

uzoq muddatli ijaraga berilgan 30 ming gektar ekin yer maydonida yuqori daromadli ekinlarni yetishtirish, 16 ta ixtisoslashgan agrokompaniya faoliyatini yo'lga qo'yish hamda 9 ta zamonaviy agrosanoat xo'jaligini tashkil qilish.

3. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (R.Sulaymonov) viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), soliq boshqarmasi (S.Nazarov), Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi (X.Pardayev), Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (D.Shakarov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda bir yarim oy muddatda "champion" tadbirkorlarga aylantiriladigan tashkilotlar ro'yxatini shakllantirsin.

4. 2025-yil 1-maydan boshlab Karmana tumanida Sanoatni jadal rivojlantirish bo'yicha loyiha ofisi (keyingi o'rinlarda - Loyiha ofisi) tashkil etilsin.

Belgilansinki, Loyiha ofisi:

kichik va o'rta biznes subyektlariga konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatadi va ular uchun muhandis, texnolog, dizayner, buxgalter, marketologlarni hamda boshqa malakali xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb qiladi;

o'zlari biriktirilgan tumanda 10 tadan drayver loyihalarni ishga tushirish, 5 tadan milliy brend mahsulotlarini yaratish, kichik va o'rta biznesning ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarini 1,5 barobar oshirishga mas'ul bo'ladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan quyidagilar:

2026-yil 1-yanvardan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxati;

2026-yil 1-yanvardan kuchga kiradigan Milliy hunarmandchilik faoliyatining yo'nalishlari ro'yxati va "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lish mezonlari;

15 ta tuman (shahar)dagi mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlari binolariga tadbirkorlik subyektlarini joylashtirish dasturi amalga oshiriladigan tumanlar ro'yxati;

2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasi;

2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari;

2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishning hududlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlari;

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi;

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi (keyingi o'rinlarda - Respublika kengashi) tarkibi va uning asosiy vazifalari tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

6. Navoiy viloyatida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha hududiy maslahat kengashining tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Hududiy maslahat kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

Hududlardagi ustuvor soha va yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadida mahalliy tadbirkorlik subyektlari bilan doimiy muloqot olib borish, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi masalalarni muhokama qilish va natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Mahalliy biznesni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish, ularni moliyaviy va infratuzilma jihatdan ko'llab - quvvatlash bo'yicha takliflar tayyorlash va ko'rib chiqish uchun Respublika kengashiga kiritish;

Tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab- quvvatlash, yosh va ayol tadbirkorlarni rag'batlantirish, startaplar va innovatsion biznes loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

Hududlarda aholini biznesga jalb qilish, yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish, sanoat, xizmat, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarini jadal rivojlantirish borasidagi tashabbuslarni ro'yobga chiqarish.

7. Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi (X. Pardayev) Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (D. Shakarov) hamda Kichik biznes uyushmasi bilan birgalikda:

har hafta bittadan tuman (shahar)ga chiqqan holda kichik va o'rta biznes subyektlari bilan uchrashuvlar o'tkazib, ularning loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashsin;

uchrashuvlarda ko'tarilgan masalalarni hal qilish bo'yicha alohida platformani ishga tushirsin;

uchrashuvlar o'tkazish vaqti va joyi haqida oldindan mahalliy televideniye, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borsin.

8. Hududiy davlat o'rganlari va tashkilotlari tegishli qonunosti hujjatlari va idoraviy ko'rsatmalar qabul qilinishini kutmasdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni normalari kuchga kirgan paytdan e'tiboran so'zsiz va to'g'ridan - to'g'ri amalda qo'llanilishini ta'minlasin.

9. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul etib viloyat hokimining birinchi o'rinbosari R. Sulaymonov belgilansin.

10. Mazkur qaror ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyati hokimining
2025-yil 3-apreldagi
86-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Navoiy viloyatida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha hududiy
maslahat kengashining tarkibi**

T/r	F.I.Sh		Lavozimi
1.	N.Tursunov	-	Viloyat hokimi, <i>Hududiy maslahat kengashi raisi</i>
2.	D.Shakarov	-	Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i, <i>Hududiy maslahat kengashi raisi o'rinbosari</i>
3.	B.Xamroyev	-	"GIDRO-STANKO-SERVIS" MCHJ rahbari, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan "champion" tadbirkorlar vakili
4.	Sh.Rashidov	-	"XATIRCHI INVEST EXPORT" MCHJ rahbari, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan "champion" tadbirkorlar vakili
5.	F.Xudoyberdiyev	-	"ZARAFSHON GRAND SERVIS" MCHJ rahbari, qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan "champion" tadbirkorlar vakili
6.	Sh.Karimova	-	"BARAKA NON NAVOIY" MCHJ rahbari
7.	X.Qudratova	-	"JAHON BIZNES BARAKA SERVIS" MCHJ rahbari
8.	N.Mamanova	-	"Obod turmush kelajagi" fermer xo'jaligi raisi
9.	R.Valiyeva	-	"Valiobod" fermer xo'jaligi raisi
11.	Sh.Sharipov	-	"Sharq qurilish servis" MCHJ rahbari
12.	D.Pirmuxamedov	-	"PREMIER TEXTILE" xususiy korxonasi direktori
13.	O.Xaydarov	-	"Biznes Fundament" MCHJ rahbari
14.	Sh.G'aniyev	-	"SARDOBA AGRO EKSPORT" MCHJ rahbari
15.	N.Ochilov	-	"NAVOI PLATINUM" MCHJ rahbari
16.	Sh.Mardiboyev	-	"Mss Union " MCHJ rahbari
17.	Mengi Sefa	-	"MENGI TEKSTIL GROUP" MCHJ xorijiy korxonasi ta'sischisi
18.	G'.Jo'rayev	-	"Navoiy-F.S.K." MCHJ rahbari
19.	I.Saidov	-	"Biznesni rivojlantirish banki" ATB hududiy boshqarmasi boshlig'i
20.	G'.Sevarov	-	"Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ hududiy bo'linmasi mas'ul xodimi
21.	<i>Lavozimi</i>	-	Sanoatni jadal rivojlantirish bo'yicha loyiha ofisi

	<i>bo'yicha</i>		rahbari
22	B.Raxmonov	-	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, <i>Hududiy maslahat kengashi kotibi</i>

Izoh:

Komissiya tarkibi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimgayangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Zaruratga ko'ra Hududiy maslahat kengashi tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.